



HUDUDLARDA SUG'URTA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

WAYS TO IMPROVE THE SYSTEM OF IMPLEMENTATION OF INSURANCE ACTIVITY IN THE REGIONS

¹Alimdjanov Nadir
Xamidullayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
iqtisod fanlari nomzodi. **ORCID:** 0009-0008-8664-7601,
E-mail: buxoro.ofis@uzbekinvest.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada hududlarda sug'urta faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holati, hududiy sug'urta xizmatlari rivojlanishida kuzatilayotgan tendensiyalar nazariy va metodologik jihatdan atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari bosh ofislari va ularning joylardagi hududiy tuzilmalari o'rtasida qaror topgan o'zaro munosabatlar tanqidiy tahlil etilgan, bu borada yetuk olimlarning qarashlari qiyosiy o'rganilgan. Sug'urtalovchilarning hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan filiallarining mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sirini kuchaytirish, hududiy tuzilmalarning sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq biznes-jarayonlarini transformatsiya qilish muammolari ko'tarilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarining mamlakat hududlari kesimidagi ulushi tahlil qilingan. Mavzuga doir mavjud holatni tahlil qilish va muammolarni o'rganish natijalariga asoslangan holda hududlarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article comprehensively examines the current state of insurance activities in the regions, as well as the trends observed in the development of regional insurance services from theoretical and methodological perspectives. It also provides a critical analysis of the relationships established between the head offices of insurance companies and their regional structures, along with a comparative study of the views of leading scholars in this field. The study raises issues related to strengthening the impact of insurers' regional branches on the development of the regional economy and transforming business processes associated with the implementation of insurance activities within territorial structures. In addition, the share of insurance premiums collected across the regions of the Republic of Uzbekistan is analyzed. Based on the analysis of the current situation and the identified problems, the article proposes recommendations aimed at improving the system for implementing insurance activities in the regions.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *sug'urta, sug'urta faoliyati, sug'urta tashkiloti, sug'urta mukofoti, sug'urta mahsuloti, hududiy sug'urta xizmatlari bozori, hududiy tuzilmalar, filial, majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta.*

❖ *insurance, insurance activity, insurance organization, insurance premium, insurance product, regional insurance services market, regional structures, branch, compulsory insurance, voluntary insurance.*

Kirish.

Hududlarda sug'urta faoliyatini Sug'urta nazorati xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Sug'urtaning asosiy tamoyillari" asosida tashkil etish, hududiy YaIMda sug'urta mukofotlarining ulushini oshirish, aholi keng qatlamlari orasiga sug'urtaning kirib borishini rag'batlantirish, sug'urta tarif stavkalarini aktuar hisob-kitoblar asosida ishlab chiqish, ilg'or anderrayting uslublarini joriy etish orqali sug'urta operatsiyalarining rentabelligini ta'minlash masalalari soha olimlari va mutaxassislari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotlarda raqamli sug'urta mahsulotlarini yaratish va taqdim etish, amaliyotda "yashil sug'urta" elementlarini o'z tarkibiga olgan sug'urta xizmatlari hajmini oshirish, sug'urtalanuvchi maqomiga ega yuridik va jismoniy shaxslarning talab-istaklariga muvofiq keladigan sug'urta mahsulotlarini yaratish, iqlim o'zgarishi va barqaror taraqqiyotga o'tish sharoitida sug'urta kompaniyalari atrof-muhit, ijtimoiy boshqaruv (ESG) tamoyillariga moslashuvchan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, risklarni modellashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash yo'nalishlariga katta e'tibor qaratilgan.

Lekin, hududlardagi sug'urta mahsuloti iste'molchilarining qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, mamlakat hududlarida sug'urta bozorining izchil rivojlanishida sug'urtalovchilarning hududiy tuzilmalari, chunonchi, filiallarining moliyaviy barqarorligini samarali anderrayterlik siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlash, sug'urta tashkilotlari bosh ofislari va ularning hududiy filiallari o'rtasidagi sug'urta faoliyatini amalga oshirish, jumladan sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va tartibga solish bilan bog'liq amaliyotlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish kabi muammoli masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 108-son Qaroriga asosan 2024-yil 1-sentabrdan boshlab sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazish va sug'urta polislarini ushbu tizim orqali rasmiylashtirishning joriy etilishi va sug'urta polislarini faqat qog'oz shaklda rasmiylashtirish amaliyotining bekor qilinishi, nafaqat mamlakatda, balki hududlarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish tizimini raqamli texnologiyalarga transformatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etdi [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi"ga muvofiq "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvani sug'urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etish va unga 100 million dollarni jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish"ning [2] belgilanganligi, shubhasiz, mamlakat hududlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish mexanizmini izchil rivojlantirish va isloh qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Hududlarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirish masalalariga ko'plab chet ellik va mahalliy tadqiqotchilar o'z e'tiborlarini qaratishgan. Jumladan, L.A. Orlanyuk-Maliskayaning yozishicha, "zamonaviy riskli vaziyat va qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga muvofiq hududlarning sug'urta himoyasini ta'minlash ularning yanada taraqqiy etishida muhim omil bo'lib hisoblanadi" [3]. Orlanyuk-Maliskaya L.A.ning ilmiy qarashlarini qo'llab-quvvatlar ekan, Xalin V. G., Chernova G. V., Prokopeva L. V. quyidagilarni qayd etadi: "hududiy sug'urta bozorlari tegishli

hududlarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatishlari zarur, ya'ni hududning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlariga miqdor va mazmun jihatdan mos sug'urta himoyasini taqdim etishlari kerak. Hududiy sug'urta bozori shunday himoyani taqdim etish va mintaqa iqtisodiyotiga investitsiya kiritish orqali yangi ish o'rinlarini yaratadi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'mak beradi" [4].

Biroq, tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, 2026-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlarida mustaqil faoliyat ko'rsatadigan birorta sug'urta tashkilotlari mavjud emas. R.S. Azimov o'z tadqiqot ishlarida "filiallar, vakolatxonalar va sug'urta agentlari tarmog'i orqali sug'urtalovchilar mamlakatning barcha hududlarida yetarlicha borligi"ni [5] ko'rsatib o'tar ekan, mazkur holatni O'zbekiston sug'urta bozoridagi ijobiy tendensiyalardan biri ekanligini e'tirof etgan.

B. Kostenkoning fikricha, "hududlarda sug'urta faoliyatini oqilona va samarali tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad hududlardagi yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan tabiiy ofatlar va yirik texnogen risklarni malakali baholash va boshqarishni nazarda tutadi" [6].

R.S. Azimov "risklarni aniqlash va tahlil qilishning eng professional va malakali jarayoni sug'urtaga olayotganda risklarni boshqarish usuli bilan amalga oshiriladi, chunki sug'urtalovchi biznesining samaradorligi shu bilan bog'liq" [7], degan g'oyani ilgari suradi. S.A. Umarovning ta'kidlashicha, "Sug'urta faoliyati" sug'urta munosabatlarining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Muallifning fikriga ko'ra, ushbu tushunchaning mazmuniga sug'urta kompaniyalarining sug'urta zahiralari oshirishga, ulardan samarali foydalanishga, shuningdek shartnomada kelishilgan sug'urta hodisasi yuz berganda zararlarni qoplashga yo'naltirilgan faoliyati kiradi" [8].

M. Mirsadikov va B. Shamsuddinov "iqtisodiyotning ixtisoslashgan tarmog'i sifatida sug'urtaning asosiy vazifasi oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy hodisalar, texnogen avariya va ijtimoiy halokatlar sodir bo'lishi oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplashni nazarda tutuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalashning samarali tizimini yaratishdan iborat" [9], deb hisoblaydi. Biroq, Sh. Imomov "o'zaro bog'langan kategoriya sifatida moliyaviy jihatdan barqaror sug'urta tizimi va zamonaviy sug'urta madaniyatini shakllantirish sug'urta sektorining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda" [10], degan fikrni bayon etgan. M. Mirsadikovning fikricha, "sug'urta milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ko'maklashuvchi ijtimoiy yo'naltirilgan mexanizm hisoblanadi va turli-tuman salbiy omillarning ta'sir darajasini kamaytirishi bilan birga mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi" [11].

Tadqiqotchilarning hududlarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish masalalariga oid ilmiy qarashlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta tizimining o'rni va ahamiyati katta.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda sintez va tahlil, qiyosiy tahlil, statistik va sifatli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Sintez metodi orqali sug'urta faoliyatini amalga oshirish va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urtaning imkoniyati va salohiyatidan foydalanish zaruriyatidan kelib chiqib, aniq natijalarga erishildi. Tahlil metodi yordamida amaliy tajribalar va mavjud qoidalarni tadqiq etish asnosida umumiy xulosalar chakllantirildi. Qiyosiy tahlil metodidan har xil yillar va sharoitlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlashda foydalanildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar va raqamli ko'rsatkichlar tadqiqotning obyektivligini oshirdi, sifatli tahlil esa xavf va muammolarni chuqurroq

tushunishga imkon berdi. Mazkur metodlardan samarali foydalanish natijalari tadqiqotni ilmiy asoslash va mantiqiy xulosalar chiqarishda katta ko‘mak berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri mintaqalarni har tomonlama ijtimoiy hamda iqtisodiy ravnaq toptirish hisoblanadi. Zero, hududlarning sanoat va investitsion salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish orqali joylarda kambag‘allikni qisqartirish, aholining yashash sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz sug‘urta sektorida har xil mulkchilikka asoslangan 36 ta sug‘urta tashkilotlari hayot sug‘urtasidan tashqari boshqa sug‘urta (non-Life Insurance) va hayot sug‘urtasi (Life Insurance) tarmog‘ida sug‘urta mahsulotlarini taqdim etmoqda. Shuningdek, 11 ta sug‘urta brokeri, 7 ta aktuariy, 20 dan ortiq assistans, adjaster, syurveyerlar, 4,0 mingdan ortiq sug‘urta agentlari sug‘urta xizmatlarini targ‘ib etmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining sug‘urta segmenti doirasida to‘plangan sug‘urta tushumlarining hududlararo taqsimlanishini yaqqol tasavvur qilish uchun quyidagi rasm ma‘lumotlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozori bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari tarkibida Toshkent shahrining ulushi (foizda)¹

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma‘lumotlar 2014-2023-yillar davomida respublika doirasida to‘plangan sug‘urta tushumlari tarkibiy tuzilishida Toshkent shahrining salmog‘i muntazam tarzda bozor bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining

yarmidan ko‘p ekanligidan dalolat bermoqda. Mamlakat bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlari tarkibida bitta hudud, ya‘ni Toshkent shahrining ulushi so‘nggi 3 yilda keskin ortib borishi, pirovardida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda

¹O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (www.mf.uz), Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi (www.imda.uz), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (www.umv.uz) va Istiqbollari loyihalar milliy agentligi (www.napp.uz) ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sug'urta faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodologiyasini tubdan qayta ko'rib chiqishni, korxonalar, tashkilotlar va aholini sug'urtaga qamrab olishning yangi innovatsion texnologiyalarini yaratishni taqozo etishi alohida qayd etilgan.

Bu borada mavjud muammolarni hal etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Masalan, sug'urta mukofotlarining kamida 60 foizini hududiy filiallar tasarrufida qoldirish - bu sug'urta tizimini "markazdan boshqarish" modelidan "hududiy o'sish drayveri" modeliga o'tkazish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, "sug'urta tashkilotlari filiallarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, hududiy sug'urta xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish, markazlashuv va nomarkazlashuv tamoyillari o'rtasida sog'lom balans yaratish, sug'urta tashkilotlarini hududiy rivojlanishning faol ishtirokchisiga aylantirishning maqbul vositasi sifatida majburiy-ixtiyoriy sug'urta turlarini hisobga olgan holda sug'urta mukofotlarining kamida 60 foizini hududiy filiallar tasarrufida qoldirish maqsadga muvofiq.

Hozirgi tizimda filiallar ko'pincha faqat "reja bajaruvchi" bo'lib qolmoqda. Mablag'ning 60 foizi filialda qolishi - bu yangi shtatlar ochish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va texnik bazani yangilash uchun mustaqil manbadir. Sug'urta kompaniyasi filiali o'z daromadidan kelib chiqib xarajatlarini optimallashtirishni o'rganadi, bu esa kompaniyaning umumiy rentabelligini oshiradi. Mablag'larning 40 foizini markazga yo'naltirish umumiy zaxiralarni va qayta sug'urta himoyasini ta'minlash uchun yetarli, 60 foizini hududda qoldirish esa operatsion moslashuvchanlikni beradi. Kichik va o'rta hajmdagi sug'urta to'lovlarini markaz bilan kelishmasdan, hududning o'zida hal qilish mijozlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchini keskin oshiradi. Moliyaviy oqimlarning ortiqcha

aylanmasi (filialdan markazga, markazdan filialga) kamayadi.

Majburiy sug'urta turlari, xususan, masalan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish barqaror sug'urta mukofotlari tushumini ta'minlaydi, ixtiyoriy turlar esa yuqori marjani beradi. Sug'urtalovchi filial tasarrufida qolgan mablag'lar hisobiga yangi ixtiyoriy sug'urta mahsulotlarini targ'ib qilish va marketing tadbirlarini o'tkazish imkoniyati kengayadi. Sug'urta kompaniyasi filiali o'z "hissa"sini saqlab qolish uchun anderrayting siyosatiga qat'iy rioya qiladi, chunki 60 foiz mablag' uning bevosita ixtiyorida bo'ladi. Sug'urta tashkiloti hududda shunchaki "pul yig'uvchi" emas, balki yirik investorga aylanadi. Ushbu 60 foizning bir qismi hududiy banklarga joylashtirilsa, bu mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy resursga aylanadi. Hududiy byudjetga soliq tushumlari va ish o'rinlari ko'rinishida katta hissa qo'shiladi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy baqarorligini ta'minlashda anderrayterlik faoliyatini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda biz tomondan sug'urta tashkilotlari filiallarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan risklarni aniqlash va baholash mezonlariga asoslangan holda risklar tabiati, ularning ehtimollik darajasi va moliyaviy ta'sirini kompleks baholash orqali sug'urtalovchilar hududiy filiallarining sug'urta portfelini optimallashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish, sug'urta obyektlarini seleksiyalash imkoniyatini beruvchi anderrayterlik siyosati ishlab chiqildi.

Anderrayterlik siyosatining mantiqiy asosi quyidagi algoritmgaga asoslanadi: sug'urta obyektini hamda unga oid risklar haqida ma'lumot to'plash va o'rganish; risklarni tasniflash, seleksiyalash va baholash; tanlangan risklarni sug'urtaga qabul qilish yoki

qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilish; sug'urtaga qabul qilinayotgan obyekt va risklarga mos keladigan sug'urta tarifini aniqlash; sug'urta summasini kelishish va sug'urta mukofotini aktuar hisob-kitoblar asosida hisoblash; sug'urtaga qabul qilinayotgan risklar bo'yicha sug'urta qoplamasi shartlarini aniqlash.

Sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va tartibga solish jarayonlarida sug'urta tashkilotlari hamda ularning hududiy filiallari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash indeksi sug'urtalanuvchilardan da'volarni qabul qilishda 20:80, hujjatlarni yig'ish va tekshirishda 30:70, sug'urta hodisalarini sodir bo'lishi oqibatida ko'rilgan zararlarni baholashda 40:60 va sug'urta to'lovlarini amalga oshirishda 30:70 nisbatda bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bizning hisob-kitoblarimizga asosan, sug'urtalovchi zaxiralarning kamida 10 foizini hududiy filiallar orqali mahalliy bank depozitlariga yo'naltirish taklifi sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi va hududiy rivojlanish uchun strategik ahamiyatga ega. Birinchidan, hozirgi kunda investitsiya resurslarining asosiy qismi markaziy apparat tomonidan yirik loyihalarga yoki poytaxtdagi banklarga yo'naltirilgan. Mablag'larni turli hududlardagi bank filiallariga bo'lib joylashtirish tizimli risklarni kamaytiradi. Shuningdek, har bir hududda shakllangan zaxiraning bir qismi o'sha hududning o'zida qolishi, kutilmagan sug'urta hodisalari yuz berganda to'lovlarni tezkor amalga oshirish imkonini beradi.

Sug'urta mablag'larining hududiy banklarga joylashtirilishi "mahalliy resurs – mahalliy investitsiya" zanjirini yaratadi. Banklar bu mablag'lar hisobiga mahalliy tadbirkorlarga kredit ajratishi mumkin, bu esa bilvosita o'sha hududda sug'urta obyektlarining (biznes, mulk) ko'payishiga olib keladi. Kompaniyaning hudud taraqqiyotidagi roli ortadi va bu mijozlarning ishonchini mustahkamlaydi. Bank depozitlari - bu

andarrayting faoliyatidagi zararlilik darajasidan qat'i nazar, kafolatlangan daromad keltiruvchi vositadir. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, banklardagi depozitlar yuqori darajadagi xavfsizlikka ega. Sug'urta kompaniyalarning filiallari o'z daromadlarining bir qismini mustaqil boshqarishi ularning moliyaviy natijadorlikka bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Bizning fikrimizcha, sug'urta zaxiralarning 10 foizini hududiy depozitlarga joylashtirish kelajakda yanada murakkabroq investitsiya vositalariga (masalan, hududiy obligatsiyalar yoki infratuzilma loyihalari) o'tish uchun ko'priq vazifasini bajaradi, filial darajasida investitsiya tahlili ko'nikmalarini shakllantiradi. Uzoq muddatga mo'ljallangan bank depozitlari sug'urtalovchining daromad va xarajatlarini muvozanalashtirishga xizmat qiladi.

Sug'urta kompaniyasi zaxiralari umumiy hajmining 10 foizini hududiy tuzilmalarga tijorat banklariga depozit tarzida yo'naltirishga imkoniyat berish orqali sug'urtalovchining investitsiya portfelini diversifikatsiyalash, hududiy tuzilmalarning investitsiya faoliyatini mintaqaviy iqtisodiyot bilan integratsiya qilish, doimiy kam tavakkalchilikka asoslangan daromad manbaini yaratish, uzoq muddatga mo'ljallangan investitsiya rejasini bajarish uchun barqaror moliyaviy resurslar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ushbu taklifning amalga oshirilishi sug'urta kompaniyasini shunchaki xizmat ko'rsatuvchi emas, balki hududiy investitsiya institutiga aylantiradi. Bu mexanizm sug'urta zaxiralari samaradorligini oshirish bilan birga, hududiy filiallar faoliyatining rentabelligini o'rtacha 5-8 foizga yaxshilash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari sug'urta sektori hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda katta rol o'ynashini ko'rsatdi. Bizning nazarimizda, sug'urta kompaniyasi portfelida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalari (infratuzilma, agrosanoat, mahalliy ishlab

chiqarish) ulushining 25-30 foiz oralig'ida bo'lishi strategik muvozanat nuqtasidir. Shu bois, sug'urtalovchilar sug'urta portfelida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy dasturlari va loyihalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan xavf-xatarlarni samarali boshqarishni nazarda tutuvchi sug'urta mahsulotlari ulushi 20 foizdan kam bo'lsa, sug'urtaning hududiy rivojlanishga ta'siri cheklanishi, 30 foizdan yuqori bo'lishi qisqa muddatda filialning likvidligi va risk konsentratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, 25-30 foiz oralig'ida xavf va barqarorlik o'rtasidagi muvozanat nuqtasi bo'lishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ushbu taklifni asoslash maqsadida quyidagi dalillarni keltirib o'tish joiz. Ulush 20 foizdan kam bo'lsa, ya'ni hududiy rivojlanish dasturlari sug'urta portfelining kichik qismini tashkil etsa, sug'urtaning hudud iqtisodiyotiga ta'siri minimal bo'ladi. Sug'urta himoyasi yetarli bo'lmagan hududda tadbirkorlar yirik loyihalarni amalga oshirishdan o'zini tiyib turadi. Kutilmagan zararlarning (masalan, kichik sanoat zonalaridagi avariya) sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplanmagani sababli, yuklama yana mahalliy budjetga tushadi.

Ulush 30 foizdan yuqori bo'lsa, ya'ni sug'urta portfelida hududiy loyihalarning haddan tashqari ko'p bo'lishi filialning moliyaviy barqarorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Loyihalar ko'pincha bir xil geografik hududda joylashgan bo'ladi. Masalan, bitta viloyatdagi kuchli sel yoki texnogen falokat bir vaqtning o'zida portfelning 30 foizdan ortig'iga zarar yetkazishi mumkin. Yirik hududiy loyihalar bo'yicha tovon to'lovlari bir vaqtga to'g'ri kelsa, filialning joriy pul mablag'lari yetishmay qolishi va u bankrotlik yoqasiga olib kelishi mumkin. Bunday katta risklarni xalqaro bozorga chiqarish xarajatlari ortadi, bu esa kompaniyaning sof foydasini keskin kamaytiradi.

25-30 foiz oralig'i. Bu ko'rsatkich "Risk va Barqarorlik" formulasining eng optimal yechimidir. Sug'urta portfelining qolgan 70-75 foizi diversifikatsiyalangan bo'lgani uchun, yirik hududiy loyihadagi zarar kompaniyaning moliyaiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. 25-30 foiz ulush hududdagi asosiy investitsion loyihalarni sug'urtaiy himoyaga olish uchun yetarli hisoblanadi. Bu orqali sug'urtalovchi hududning iqtisodiy o'sishida real ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hajmda yig'ilgan mukofotlar ham zaxiralarni shakllantirishga, ham operatsion xarajatlarni qoplashga yetadi, shu bilan birga kutilmagan yirik to'lovlar likvidlikka katta xavf tug'dirmaydi.

Xulosa va takliflar.

Hududlarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar shakllantirildi.

risklarni aniqlash va baholash mezonlariga asoslangan holda risklar tabiati, ularning ehtimollik darajasi va moliyaviy ta'sirini kompleks baholash orqali sug'urtalovchilar hududiy filiallarining sug'urta portfelini optimallashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish, sug'urta obyektlarini seleksiyalash imkoniyatini beruvchi andarrayterlik siyosati ishlab chiqish taklif etilgan;

sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va tartibga solish jarayonlarida sug'urta tashkilotlari hamda ularning hududiy filiallari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash indeksi sug'urtalanuvchilardan da'volarni qabul qilishda 20:80, hujjatlarni yig'ish va tekshirishda 30:70, sug'urta hodisalarini sodir bo'lishi oqibatida ko'rilgan zararlarni baholashda 40:60 va sug'urta to'lovlarni amalga oshirishda 30:70 nisbatda bo'lishining maqsadga muvofiqligi asoslangan;

sug'urtalovchilar sug'urta portfelida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy dasturlari va loyihalarini amalga oshirishda

yuzaga keladigan xavf-xatarlarni samarali boshqarishni nazarda tutuvchi sug'urta mahsulotlari ulushi 20 foizdan kam bo'lsa, sug'urtaning hududiy rivojlanishga ta'siri cheklanishi, 30 foizdan yuqori bo'lishi qisqa muddatda filialning likvidligi va risk konsentratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, 25-30 foiz oralig'ida xavf va barqarorlik o'rtasidagi muvozanat nuqtasi bo'lishi aniqlangan;

sug'urta zaxiralarining kamida 10 foizini hududiy filiallar tomonidan bank depozitlariga joylashtirishga ruxsat berish orqali sug'urta tashkilotining investisiya portfelini diversifikatsiyalash, investisiya faoliyatini hududiy iqtisodiyot bilan bog'lash, barqaror va past riskli daromad manbaini shakllantirish, uzoq muddatli investisiya strategiyasini amalga oshirish uchun moliyaviy asos yaratish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari filiallarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, hududiy sug'urta xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish, markazlashuv va

nomarkazlashuv tamoyillari o'rtasida sog'lom balans yaratish, sug'urta tashkilotlarini hududiy rivojlanishning faol ishtirokchisiga aylantirishning maqbul vositasi sifatida majburiy-ixtiyoriy sug'urta turlarini hisobga olgan holda sug'urta mukofotlarining kamida 60 foizini hududiy filiallar tasarrufida qoldirish taklif etilgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, hududlarda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish va sog'lom raqobat muhitini to'laqonli yaratish, provardida, hududiy yalpi ichi mahsulot tarkibida sug'urta mukofotlari salmog'ining oshishiga hamda sug'urtaning aholi keng qatlamlari orasiga kirib borishiga amaliy ko'mak beradi. Sug'urta tashkilotlari hududiy filiallari, bo'limlari va sotuv markazlariga bosh ofis tomonidan biznes-jarayonlarni amalga oshirish yuzasidan vakolatlarining kengaytirilishi hududiy sug'urta xizmatlari bozorining viloyat, tuman va shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 108-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6824178>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi". <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. Орланюк-Малицкая Л.А. Страховой интерес как базис развития регионального страхования// Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. ISSN 1999-2645. – №4 (52). Номер статьи: 5201. Дата публикации: 04.10.2017. Режим доступа: <https://eee-region.ru/article/5201/c.2/13>
4. Халин В. Г., Чернова В. Г., Прокопьева Л. В. Диспропорции развития региональных страховых рынков и управление ими // Управленческое консультирование. 2020. №5 (137). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/disproportsii-razvitiya-regionalnyh-strahovyh-rynkov-i-upravlenie-imi> (дата обращения: 11.04.2023).
5. Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: -2022 y. 22-b.
6. Костенко О. В. Страхование: Курс лекций для студентов вузов по специальностям 080105 "Финансы и кредит" и 080109 "Бухгалтерский учет, анализ и аудит". Вятская государственная сельскохозяйственная академия, Кафедра денег, кредита и финансов, 610017, Кировская обл., г. Киров, Октябрьский пр-т, 133. – Киров, 2012.

7. Azimov R.S. *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.* – T.: 2022 y. 16-b.

8. Umarov S.A. *Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida o'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati.* – T.: 2012 y. 13-b.

9. Мирсадыков М., Шамсуддинов Б. *Актуарные аспекты государственного регулирования страхового рынка.* // журнал "Рынок, деньги и кредит". -№5, май 2003. -с.34.

10. Имомов Ш. *Страхование как инструмент защиты бизнеса.* // журнал "Рынок, деньги и кредит", №6 июнь, 2002. - с.28.

11. Мирсадыков М. *Современное состояние и тенденции развития страхового рынка Узбекистана.* // журнал "Рынок, деньги и кредит", №8, август 2001. -с.31.